ATAMALAR

Abbosiylar — Muhammad (s.a.v.) avlodidan chiqqan, 750–1258-yillarda Arab xalifaligini boshqargan sulola.

Avesto – zardushtiylikning diniy, muqaddas kitobi.

Avstralopitek – Janubiy Afrikadan topilgan eng qadimgi odam turi.

Agema – Makedoniyalik Iskandarning maxsus otliqlar qo‘shini.

Agora – Qadimgi Yunoniston shaharlarida xalq yig‘ilishi joyi, markaziy maydon.

Agrar (yunoncha) – «agro» – yer degani. Agrar so‘zi yer yoki dehqonchilik bilan bog‘liq masalalarda ishlatiladi.

Azarxurra – otashparastlar sig'inadigan muqaddas olov, o‘t.

Ayl – Amir Temur askariy qismlarining o‘n nafarlik bo‘linmasi.

Aylboshi – o‘n nafarlik askariy bo‘linmaning kichik zobiti; askarboshi.

Akademik (fransuzcha) – yuksak ilmiy unvon.

Akademiya – oliy ilmiy tashkilot.

Aqinak – xanjar turi.

Altamir – Ispaniyadagi so‘nggi paleolitga oid qoya rasmlari topilgan g‘or.

Amid ul-mulk — davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.

Amin ad-davla – moliya va ichki ishlar vaziri.

Amir ul-umar – amirlar amiri, bosh sarkarda, lashkarboshi, sarkarda.

Amiri shikor – xonlarning ovini tashkil etuvchi amaldor.

Amlok (arabcha) – 1) katta yer egaligi, mulklar, yer-suv, kishi tasarrufidagi narsalar, buyumlar. Musulmon Sharqining qator mamlakatlarida davlat ixtiyoridagi yer-suv va boshqa boyliklar. 2) davlat yerlari.

Anaxita (Nohid) – yer, suv, hosildorlik ilohasi.

Angob – kulolchilikda ishlatiladigan rang.

Ansorlar (arabcha, yordamchilar, safdoshlar) – Muhammad (s.a.v.) sahobalari bir tabaqasining nomi. (Ular 622-yilda Makkadan Madinaga ko‘chib borgan musulmon muhojirlarga va Rasulullohga yordam berganlar).

Antik – lotin tilida “qadimgi”.

Antropologiya – odam suyaklari asosida ularning qiyofasi, jinsi, yoshi, irqini o‘rganuvchi fan.

Ariz – qo‘shin ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi vazir.

Apellyatsiya – (lotincha – shikoyat, norozilik bildirish) – sud hukmidan norozi bo‘lgach, uning ustidan shikoyat arizasi berilishining bir shakli.

Araks – yunon manbalarida Amudaryoning nomi.

Ark – ichki qal’a, podshohning shahar ichidagi qo‘rg‘on-saroyi, qarorgohi; shaharning hokim qasri joylashgan qismi.

Arkbegi – podsho qarorgohining boshqaruvchisi.

Arkon – dindagi eng muhim vazifa.

Aruz ilmi (arabcha) — she’r ilmi, she’r tizimi.

Astron – lotincha “yulduz”.

Atrabon – otashparastlik ibodatxonasining ruhoniysi, otashgoh xizmatchisi.

Ahamoniylar – Eron davlatiga asos solgan sulola.

Ahriman – zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o‘lim, gunoh va qabihliklar tangrisi.

Ahuramazda – zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug‘lik, farovonlik, sihat-salomatlik, tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.

Avtonomiya (yunoncha – qonun) – biror-bir hududning qonun bilan chegaralangan davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi.

B

Badaviy (arabcha) – dashtlik, cho‘l odami, ko‘chmanchi; arab ko‘chmanchi chorvador aholisiga nisbatan qo‘llanilgan.

Bargustivon – jang va tantanalarda ot ustiga yopiladigan bezakli mato yoki sovut.

Barzikor – qo‘shchi, ziroatkor, qishloqning mehnatkash aholisi.

Barot – ijaraga olish.

Batrak – qishloq xo‘jaligi ishchisi. Xonavayron bo‘lib, xo‘jaligidan mahrum bo‘lgan va yeri kam kichik xo‘jalik yurituvchi dehqon.

Begar – rasman 12 kunlik davlat majburiyati, unga ko‘ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to‘plashardi. Ular har yili turli qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo‘llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida ishlar edilar. Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo‘lsa-da, aslida u bir oy, undan ko‘proqqa ham cho‘zilar edi. Begor –

mehnatkash aholiga yuklatilgan saroy, jamoat binolari, mudofaa va sug‘orish inshootlarini hamda yo‘l qurilish va tuzatish ishlarida tekinga ishlab berish majburiyati.

Bey, bek (turk) – Usmoniylar davlatida viloyat, tuman boshliqlarining nomi, unvoni.

Biy sudlari – qabila urf-odatlariga tayanib ish ko‘radigan sud.

Boj (arab) – chetdan keltiriladigan tovarlar qiymatidan olinadigan soliq turi.

Boru – qal’a devorining o‘q otadigan pana joyi.

Bosqoq – mo‘g‘ullar hokimlik qilgan XIII-XIV asrlardagi mahalliy hokim.

Botmon – og‘irlik o‘lchovi (XIV-XV asrlarda u 20 kg. ga teng bo‘lgan).

Burg‘u – karnay.

Burj – qal’a devorining cho‘qqisi, minorasi.

Buyuk ipak yo‘li – Osiyoning sharqiy mamlakatlari bilan uning markaziy va g‘arbiy viloyatlarini, Osiyoning janubiy mamlakatlari bilan uning shimolidagi viloyatlarini hamda janubiy, janubi-sharqiy hududlarini bog‘lab turuvchi ulkan savdo, iqtisodiy, siyosiy va madaniy karvon yo‘lidir.

Budun – chorvador aholi; qora bo‘dun – qora xalq.

D

Darra – charm va qayishdan to‘qilgan yo‘g‘on va og‘ir zarb beruvchi qurol.

Dasturxonchi – xonning huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas’ul amaldor.

Daftardor – xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor.

Daha – qadimda shaharning o‘n mahallasini o‘z ichiga olgan ma’muriy hududni anglatgan.

Daxma – maqbara, mavzoley yer osti yoki yer usti sag‘anasi, qabr ustiga qo‘yilgan yodgorlik.

Dashti Qipchoq – Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g‘arbiy yonbag‘ridan to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo‘lgan hudud.

Devon – davlat boshqaruvi idorasi, vazirlar mahkamasi.

Delegat (lotincha – yuborgan) – Biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil.

Devonbegi — 1) xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazorat olib borgan. U Ark etagida yashagan. 2) Davlatning moliya-xazina ishlarini boshqaruvchi amaldor.

Devorzan – paxsakash; g‘ishtdan devor uruvchi

Degrez – cho‘yandan qozon quyuvchi.

Dehqon (qishloq hokimi) – ilk o‘rta asrlarda mulkdor tabaqa.

Diniy mutaassiblik – dinga ko‘r-ko‘rona amal qilish.

Dinor – 1) bir misqol (4,8 gr.) og‘irlikda so‘qilgan oltin yoki kumush tanga. 2) 4,235 gr. vazndagi oltin tanga.

Diplomatiya – davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarini amalga oshirish borasidagi faoliyat.

Dovul – katta nog‘ora.

Dodxoh — fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi va hal etuvchi amaldor bo‘lgan.

Dorug‘a – shahar va tuman hokimi, mudofaa mutasaddisi, harbiy ma’mur.

Dor ush-shifo — shifoxona.

Doya – cho‘ri.

Dubulg‘a – jangda kiyiladigan temir qalpoq, xud.

Dukchi – (forscha – yig, duk) – charxning yigirilayotgan ip o‘ralib boriladigan qismi. Duk yasovchi hunarmand – dukchi deyilgan.

Duma – (ruscha – o‘ylash, fikrlamoq) – Rossiya imperiyasining qonun chiqaruvchi hokimiyati, shahar dumasi – shaharning o‘zini o‘zi boshqarish organi.

E

Eloqxon – elning oq xoni, yurtning kichik hukmdori, viloyat hokimi, el-yurt hokimi.

Ekspeditsiya – (lotincha – yurish) – maxsus topshiriqqa binoan biror guruhning safari.

Epos – xalq og‘zaki ijodida qahramonlik va qahramonlar haqidagi dostonlar majmui.

Era (lotincha) – biror yil boshlangan vaqt. Iso tug‘ilishidan Milod boshlanadi.

Erkin – qo‘shinning g‘arbiy qanot amiri.

Etnik munosabatlar — aholining o‘zaro munosabatlari.

Etnogenez – biror-bir xalqning tarkib topish jarayoni; kelib chiqish ildizi.

Eshon – dindorlar orasida obro‘ qozongan diniy rahnamo unvoni.

F

Falsafa – hayotdagi barcha narsa va hodisalarning aloqadorligini o‘rganuvchi fan.

Farmondor – boshqaruvchi.

Fulus – mayda mis chaqa puli.

Futa – ip yoki ipakdan to‘qilgan sallabop mayin mato.

G

Gabaza – Dehqonobod-Darband oralig‘ida joylashgan qadimgi viloyat (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari).

H

Handasa – geometriya.

Harbiy taktika — jangda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun aniq sharoitga mos ravishda jang olib borishning tanlangan shakli va usuli.

Hasham – hukmdorga yaqin kishilar.

Hijr (arabcha) – Muhammad s.a.v. payg‘ambar va musulmonlarning Makkadan Yasrib (Madinaga) ko‘chib borishlari, musulmon yilining boshi hisoblanadi.

Hojib – harbiy boshliq.

Hojibul-buzruk – bosh qo‘mondon.

Hojibul-hujob – qo‘mondon.

Holati razl – o‘lim to‘shagi, jon chiqar payti.

I

Izofa – zaxira (rezerv) qism.

Iqto, iqta (arabcha) – yer bermoq, musulmon davlatlarida feodalga qilgan harbiy xizmatlari evaziga vaqtincha foydalanish uchun berilgan yer maydoni.

Ilmi aruz – poetika.

Ilmi hay’at – astronomiya.

Inoq — vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo‘lgan.

Inoqlar (turkiycha–ishonch) qabila boshliqlaridan iborat xonning maslahatchilari hamda xonning farmonlarini o‘z tobelariga yetkazuvchilar. O‘rta Osiyoda XI-XVIII asrlarda hukm surgan sulolalar saltanatida “maslahatchi”, “vazir” ma’nosini anglatgan.

Istil (arabcha) – bo‘ysundirish. Biron davlat tomonidan boshqasining yerlarini bosib olish, bo‘ysundirish tushuniladi.

Ixshid – ilk asr knyazi, viloyat hokimi, xon yoki amir avlodlari.

Ish tashlash – ishchilarning ijtimoiy kurash usullaridan biri. Sohibkorni iqtisodiy yon berishga, hukumatni biror-bir talabni qondirishga majbur qilish uchun qo‘llanilgan.

J

Jadid – (arabcha) – «yangi» degan ma’noni bildiradi.

Jarib – 958 kv/m yer maydoni.

Jez – mis bilan qo‘rg‘oshinni qo‘shib eritish natijasida hosil qilingan ma’dan.

Jeta – qaroqchi, qoloq.

Jevachi – (jeva – qurol-aslaha) – qurol-aslahaxona boshlig‘i.

Jiz’ya – islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq.

Jihod (arabcha) – diniy urush, XIX asrda musulmonlarning mustamlakachilarga qarshi kurash shakli.

Jogir – harbiy xizmat evaziga olinadigan yer.

Jome masjid – juma kunlari jamoat namozi o‘qiladigan katta masjid.

Joriya – cho‘ri.

Juybon – suv taqsimlovchi mirob.

K

Kavi – “Avesto”dagi mamlakat sardori.

Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram bo‘lib qolgan ahli.

Kalava – yigirilgan ip o‘rami.

Kalavachi – ip yigiruvchi.

Kalom – islom diniy ta’limotini asoslab beruvchi diniy ilm.

Kalon – XIII asrdagi yer solig‘i, hosilni 1/10 qismi hajmidagi soliq.

Kasanachilik – qo‘l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik.

Kashovarz – ziroatchi oddiy qo‘shchilar.

Kazak – Rus davlatida o‘rta asrlarda krepostnoy dehqonlar orasidan chekka hududlarga qochib borib, erkinlikka chiqqan kishilardan tuzilgan qo‘shin.

Ka’ba – musulmonlarning Makka shahridagi muqaddas ibodatxonasi.

Keshik – XIII asrda mo‘g‘ullar qo‘shinidagi zaxira qism, gvardiya, guruh.

Kibor – ma’mur, zodagon.

Kirpichpazlik – xumdonda pishiq g‘isht pishirish.

Kitoba – lavha.

Kitobdor — amir kutubxonasi boshlig‘i.

Koriz – yer osti suv inshooti.

Korikor – xizmatkor.

Kofiya – arab tili morfologiyasi.

Koh – saroyli ichki qal’a, ark, o‘rda.

Kontributsiya – mag‘lub davlatning g‘olib davlat foydasida to‘lovi.

Kohin – ruhoniy, ibodatxona mutavallisi.

Kochi – marza.

Koshin – sirli pishiq g‘isht.

Kromanyon – Janubiy Fransiyadagi joy. Shu joydan topilgan odam qoldig‘i.

Kudungar — matoga oxor beruvchi.

Kuchorchi (quloviz) – yo‘l boshlovchi.

Ko‘kaldosh — butun amirlik hududida do‘stona yoki dushmanlik munosabatida bo‘luvchilar haqida ma’lumotni to‘plagan, xonning eng ishonchli kishisi; maslahatgo‘yi.

Ko‘ragon – xon kuyovi.

Ko‘shk – istehkomli baland qo‘rg‘on.

L

Lavvoh — sarlavha yozuvchi.

Lag‘m (lahm) – tunnel, yer osti yo‘li.

Lak – yuz ming.

M

Madrasa – oliy ilmgoh.

Majus – otashparast.

Majusiy – otashparastlik dindori.

Maorif – (arabcha) – insonlarning bilimi va tafakkurini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya.

Maqom — musiqada bir qismli yoki turkumli cholg‘u va ashula yo‘llari; musiqiy uslub.

Manglay – ilg‘or guruh.

Mardona – bo‘yoq olinadigan o‘simlik.

Markazlashgan davlat – mamlakatning barcha hududida yagona hukmdor hokimiyati o‘rnatilgan davlat.

Masnaviy (arabcha) — ikkilik. Kichik she’riy asarlar ham, dostonlar ham masnaviy deb yuritiladi.

Masnad – taxt, suyanchiq, daraja, hukmronlik o‘rni.

Matbuot – (arabcha) – nashr; gazeta, jurnal va kitoblar majmui.

Mafkura – ma’lum maqsadni yuzaga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g‘oyalar yig‘indisi.

Mesh – suv yoki qimiz elitadigan teri xalta yoki to‘rva, sanoch.

Mingboshi – Qo‘qon xonligida bosh vazir va qo‘shinlar qo‘mondoni.

Mirihazora – minglik harbiy bo‘linmaning amiri.

Mirob – suv xo‘jaligi boshqaruvchisi.

Mirobona – suv solig‘i.

Miroxo‘r — amir otxonasining boshlig‘i bo‘lgan.

Mirrix – urush, jang va g‘alaba tangrisi.

Mirshab — tungi shahar soqchilari boshlig‘i vazifasini bajargan.

Miftoh – darvozalik to‘g‘on, shlyuz, suv taqsimlag‘ich.

Mixxat yozuvi – Mesopotamiyada kashf etilgan ponasimon shakldagi yozuv; shumerlar va forslarning qadimgi yozuvi.

Moli sardaraxt – bog‘ va daraxtzorlardan olinadigan soliq.

Moli omon (omon puli) – o‘rta asrlarda mag‘lub shahar talon-taroj qilingan yoki aholidan uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Muallimus soniy – Ikkinchi muallim. Forobiy shu nom bilan ulug‘langan (Birinchi muallim Aristotel hisoblangan).

Mubayyin – bayon etilgan.

Muzahhib – zarhal beruvchi mo‘yi qalam sohibi, oltin suvni yurituvchi.

Muzoriy – qo‘shchi, ziroatkor, ekin ekuvchi, ekin maydonlarida ishlovchi yollanma ishchi.

Muqto yoki iqtodor – iqto yer va mulklariga ega bo‘lgan shaxslar.

Mulk – islom mamlakatlarida xususiy mulk nomi.

Mulki vaqf – madrasa va masjidlar tasarrufidagi yer-mulk, xayrli ishlar uchun ajratilgan mol-mulk.

Mulk yerlari — hukmron sulola vakillari, mulkdor dehqon va aslzodalar, shuningdek, qishloq aholisiga qarashli yerlar.

Mulki devoniy – davlat yerlari.

Mulki inju – hukmdor avlodlari va noiblariga qarashli yerlar. Mulk – xususiy yerlar.

Mulki sultoniy — hukmdorga qarashli davlat yeri.

Mulki xos — davlat solig‘idan qisman yoki butunlay ozod etilgan oliy martabali ruhoniylar va sayyidlarga qarashli yerlar.

Musallas – uzum yoki mayizdan tayyorlangan shirin sharob.

Mustabidlik – mutlaq hokimiyatga asoslangan siyosiy tuzum.

Mustavfiy – markaziy hokimiyat devonxonasi daftardor hisobchisi, moliya vaziri.

Mutaassib – (arabcha – o‘ta fidoyi) – dinga qattiq berilgan, uning aqidalariga ko‘r-ko‘rona amal qiluvchi.

Muftiy – diniy-huquqiy masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi mansabdor. Hozirgi kunda diniy idora boshlig‘i.

Muhaddis – hadis to‘plovchi, sharhlovchi ulamo.

Muxammas (arabcha) — beshlik. Sharq she’riyatidagi she’riy shakl.

Muxolifat – mavjud hokimiyat siyosatiga qarshi kuchlar.

Muhoraba – jang, urush, harbiy to‘qnashuv.

Muhrdor – devonxonaning muhr saqlovchisi, muhr bosuvchi, muhr sohibi, hukmdor.

Muhtasib – shariat qoidalari ijrosini, bozordagi tartibni, shariat qonunlarining fuqarolar tomonidan bajarilishini nazorat qiluvchi amaldor. Muhtasib – tosh-tarozi va narx-navo nazoratchisi. U din qoidalariga amal qilinishi ustidan ham nazorat olib borgan.

Mushrif — amaldorlar xonga in’om etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro‘yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan, saroy ish boshqaruvchisi.

Mo‘g‘ul irqi – sariq irqqa mansub kishilar.

Mo‘la – shahar devorlarining burji, minorasi.

Mo‘ng‘ul – chet ellik, musofir, daydi, muhojir.

N

Navkar (forscha) – harbiy xizmatchi.

Najjorlik – duradgorlik.

Namozgoh – iyd ibodatlari o‘qiladigan masjid, iydgoh.

Nova – suv tashlag‘ich tarnov, suv tashlag‘ich.

Noib (arabcha — o‘rinbosar, yordamchi) — tobe o‘lka yoki viloyat hokimi.

Nohid (Anahita, Nana) – hosildorlik va farovonlik ma’budasi.

O

Observatoriya – bu so‘z bizda rasadxona deyilib, osmon jismlarini kuzatish uchun maxsus jihozlangan bino.

Ozod – zod – zodagon.

Ostadon (assuariy) – sopol tobutcha.

Otaliq – shahzodalarga murabbiy etib tayinlanganlar.

Otashgoh – muqaddas o‘choq, o‘txona, olovxona.

Otashkada – otashparastlar ibodatxonasi.

Ohangar – temirchi.

Oshlig‘ solig‘i – urush paytida yig‘iladigan soliq.

P

Parvonachi – biror lavozimga tayinlangan kishiga uning shu lavozimga tayinlanganini yetkazuvchi amaldor.

Parchim – bayroq yoki tug‘ uchiga bog‘lanadigan shoda, qo‘tos dumi, ipak shoda.

Parchin – sirlangan rang-barang g‘isht parchalarining qadamalari.

Pir — oliy rahnoma.

Palahmon – jundan to‘qilgan tosh otuvchi qurol; toshotar, harbiy qurol.

A

Qanbul (ayrim manbalarda «kanbul») – qo‘riqchi askariy bo‘linma.

Qaznoq – omborxona.

Qaz – adliya ishlari qozisi, sudya, qozilik.

Qazu — butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarni tozalashga safarbar etish majburiyati.

Qarluqlar – qadimiy turkiy qabilalardan biri. Dastlab Oltoyning g‘arbiy qismida, so‘ngra Irtish daryosi bo‘yida yashaganlar. Bu daryoning bir irmog‘i hozir ham qarluq deb ataladi.

Qasida – she’riy madh, maqtov yoki marsiya, didaktik mazmundagi she’r janri.

Qasr – saroy, oliy va hashamatli bino.

Qozikalon – davlatning sud ishlarini bajaruvchi amaldor.

Qopchur – mo‘ng‘ullar davrida chorvadan olinadigan soliq. 1% miqdorda olingan.

Qoraxon – ulug‘ xon, buyuk xoqon.

Qutvol – davlat qurilishi boshlig‘i, sarkori.

Qozi sudlari – shariat qoidalari asosida ish ko‘radigan sud.

Qo‘ng‘irot — yirik o‘zbek qabilalaridan birining nomi.

Qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha – atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan darvozali turar joy.

Qo‘sh – bir juft ho‘kiz bilan haydaladigan yer maydoni.

Qo‘sh – harbiy yurishlar paytidagi hukmdor qarorgohi, o‘rdugoh, lager.

Qo‘shbegi (qushbegi) – bosh vazir.

Qo‘shin – yuz nafarlik harbiy bo‘linma.

Qo‘shinboshi – yuzlik bo‘linma zobiti, komandir

R

Rabod – tashqi shahar, karvonsaroy.

Rais – shahar hokimi.

Rasadxona (observatoriya) – osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino.

Ra’dandoz – tosh otgich, harbiy qurol.

Registon (forscha) — shaharning mayda tosh to‘shalgan markaziy maydoni.

Riyoziyot – matematika.

S

Sabonchi – Oltin O‘rda dehqonlari.

Savquljaysh – strategiya.

Sadoq – o‘qdon.

Sadoqxona – tir.

Sadr – in’om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchi.

Sadri a’zam – bosh vazir, vaqf mulklari boshqaruvchisi.

Sayyidlar — Muhammad (s.a.v.)ning nabirasi Husayn avlodlari.

Salg‘ut solig‘i – yer solig‘ining bir turi.

Sarbador — boshini dorga tikkanlar, mo‘g‘ullar zulmiga qarshi xalq qo‘zg‘oloni qatnashchilari.

Sardoba (obdon) – pishiq g‘ishtdan qurilgan gumbazli hovuz, suvxona.

Sarkor – davlat xazinasiga tushuvchi mahsulotlarni saqlovchi amaldor.

Sarrojlik – egar va jabduq yasovchi ustaxona.

Sarroflar – pul bo‘yicha mutaxassislar. Ular pul almashtirib kelish bilan shug‘ullanishgan.

Satrap – viloyat hokimi, noibi.

Satraplik – viloyat.

Safforiylik – misgar hunarmandlar.

Sahhob – muqovasoz, muqovachi.

Sixg‘altak – charxli ko‘tarma.

Suvoriy – otliq askar.

Sulton – podshoh, hukmdor: umuman podsho va shahzodalar nomiga qo‘shib aytiladigan unvon.

Suyurg‘ol – oliy hukmdor tomonidan in’om tariqasida berilgan yer-mulk.

Stixiyali – uyushmagan, to‘g‘ri tashkil etilmagan harakat.

T

Tabla – ikki tomonli hind nog‘orasi, katta nog‘ora.

Tavochi – mamlakat miqyosida qo‘shin to‘plovchi maxsus amaldor.

Tazar – yer osti kanalizatsiya inshooti.

Takin (yoki tegin) – viloyat hokimi.

Tamg‘a – savdo boji: savdogarlardan olingan soliq. Mo‘g‘ullar davrida hunarmand va savdogarlardan olinadigan soliq 1/30 olingan.

Tamg‘achxon – xonlar xoni.

Tanob (chilvir, arqon) – 1) tanob yer maydoni 8,33 sotixga teng bo‘lgan; 1 ga yer esa 12 tanobni tashkil etgan; 2) tomonlari 60 gazdan iborat yer maydoni (bu miqdor 900 kv/m ga teng gaz – 71 sm.); 3) 2-2,5 ming kv/m hajmdagi yer maydoni.

Tanh – katta xizmatlar evaziga beriladigan mulk, pul.

Targ‘u – zig‘ir poyasidan to‘qilgan dag‘alroq mato.

Targ‘u – Mo‘g‘ullar davrida hunarmandlar va savdogarlardan undirilgan soliq turi. Ishlab chiqarilgan mahsulot yoki sotilgan molning o‘ttizdan bir qismi hajmida undirilgan.

Tariqat – tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya’ni komil inson darjasiga erishishni ko‘rsatuvchi to‘g‘ri yo‘l.

Tarxonlik yeri – har qanday soliqdan va jarimadan ozod etilgan yerlar. Tarxon yorlig‘i bo‘lgan kishilarning ketma-ket qilingan 9 ta aybi kechirilgan. Sodir etgan 10-aybidan boshlab javobgarlikka tortilgan.

Tasavvuf – so‘fiylik tariqatlari va ular ta’limoti; musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o‘zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka da’vat etuvchi ta’limot.

Tirkash – kamon o‘q uzadigan nishon tuynugi.

Toq – usti yopiq bozor va hunarmandchilik rastasi.

Totem – urug‘ yoki qabila ibtidosi, urug‘ asoschisi, ajdod, urug‘ jamoalari topinadigan hayvon, o‘simlik yoki jism.

Totemizm – ibtidoiy e’tiqod shakllaridan biri bo‘lib, ibtidoiy kishilarning biror hayvon yoki jonivor bilan qarindoshlik aloqasiga ishonishdir.

Truppa – teatr yoki sirk artistlari jamoasi.

Tug‘ – davlat nishonasi, gerb.

Tuzem – yerli xalq, mahalliy aholi.

Tuman (tuman og‘asi) – o‘n minglik askariy qism amiri, qo‘mondon.

Tutun yoki tudun – Turk xoqonligining viloyat hokimliklaridagi vakili.

To‘ra – yuqori tabaqaga mansub kishi. Xonliklar davrida katta amaldor, hokim.

To‘brez – to‘p quyuvchi.

To‘qsoba – xon tug‘i sohibi, keyinchalik harbiy amaldor bo‘lgan, harbiy qism sarkardasi.

To‘r – yer osti harbiy istehkomi.

U

Ulamo — din olimlari.

Ultimatum – (lotincha – so‘nggi, oxirgi) – biror masala yuzasidan bir davlat hukumatining boshqa davlat hukumatiga bayon qilgan, hech qanday e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qat’iy talabi.

Ulton – charm, oshlangan teri.

Umaviylar — Arab xalifaligini 661–750-yillarda boshqargan sulola.

Uruj – yuksalish, yuqori ko‘tarilish, ko‘kka ko‘tarilish.

Ushr – idora ishlari uchun daromadning 1/10 qismi hajmida olinadigan soliq.

Ushr – hosildan 10% hisobida olinadigan dehqonchilik solig‘i.

V

Vassal – bir davlatning boshqa biriga bo‘ysunish tartibi.

Vag‘iz – ibodatxona yer va mulklari.

Vag‘n – ibodatxona.

Vag‘npat – kohin, ibodatxona ruhoniysi.

Vazir (arabcha) – 1) musulmon mamlakatlarida ministr unvoni. Usmoniylar davlatida ko‘pgina saroy va viloyat noiblari-mulozimlar vazir unvonini olganlar. Buyuk vazir hukumat boshlig‘i hisoblangan. 2) devonxona boshlig‘i, bosh vazir.

Vazkirom – soliq yig‘uvchi, moliya xodimi.

Vaqf – davlat va amaldorlar tomonidan diniy muassasalar, masjid, madrasa va mozorlarga ajratilgan mol-mulk.

Vaqf yerlar – masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki abadiy foydalanish uchun berilgan yer.

Valiahd – toj-u taxt vorisi. Hukmdor tirikligi davrida har ehtimolga qarshi voris tayinlab qo‘yardi.

Vara – “Avesto”da devor bilan o‘ralgan to‘rtburchakli makon.

Varvar (yunoncha) – grek va rim madaniyati ta’sir doirasida bo‘lmagan har qanday xalq, elat va qabila vakillariga nisbatan ishlatilgan. Madaniyatsiz, qo‘pol, johil, nodon, umuman yovvoyi kishi degan ma’noni anglatgan.

Varna – zardushtiylarda g‘animlar yashaydigan viloyat, toifa, tabaqa demakdir.

Visoqboshi – to‘rt nafarli askariy guruh boshlig‘i; chodir boshlig‘i.

X

Xabargir – xabarchi, ayg‘oqchi, kuzatuvchi.

Xaylboshi – suvoriylar amiri.

Xalifa (arabcha) – o‘rinbosar; Muhammad s.a.v. payg‘ambar vorisi deb hisoblangan imomning unvoni.

Xalfa (arabcha) – hunarmand qo‘lida ishlovchi shogirdlar ichidagi bosh shogird.

Xandaq – mudofaa inshooti.

Xara – zardushtiylarning muqaddas tog‘i, dunyoda eng baland cho‘qqili tog‘.

Xarbor — bir eshakka yuk bo‘ladigan og‘irlik o‘lchovi.

Xattot – kitob va risolalar ko‘chiruvchi kotib.

Xatib — namozda xutba o‘qiydigan ruhoniy, din peshvosi.

Xoqon yoki qog‘on – hukmdor, podsho.

Xonaqoh – darvishlar uchun maishiyxona va masjiddan iborat yotoqxona.

Xolisa – davlat yerlari.

Xubbi – suv ma’budasi.

Xurofiy – soxta, uydirma, asossiz (din, e’tiqod, urf-odatlar haqida).

Xutba – juma nomozida hukmdor nomini aytib uning haqiga duo o‘qish.

Xiroj (arabcha) – 1) avval arab xalifaligida, keyinchalik butun musulmon dunyosida xalqdan undirilgan yer solig‘i, hosilning 20-25% hisobida olinadigan qishloq xo‘jalik solig‘i, XV asrda soliq “Mol” deb yuritilgan; 2) hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig‘i.

Y

Yabg‘u yoki jabg‘u – el-yurt hokimi, yabg‘u darajasiga faqat xoqon urug‘iga qon-qarindosh bo‘lganlargina ko‘tarilgan.

Yasovul – soqchi, xon amri va farmonlarini ijrochilarga yetkazuvchi. Hukmdorning shaxsiy topshirig‘ini bajaruvchi.

Yasoq – soliq, jarima, to‘lov.

Yasoq kitobi – mo‘g‘ullarning huquqiy qonunlari to‘plami

Yobg‘u (jabg‘u) – xondan keyin turuvchi qabila yoki katta viloyat hukmdori.1

Yom-jom – savdo yo‘llaridagi qo‘noq.

Z

Zakot – 1) chorvadan olinadigan soliq, to‘plangan boylikdan to‘lanadigan daromad solig‘i. 2) mol-mulkning 1/40 qismi hajmida olinadigan soliq.

Zamindor (forscha) – Hindistondagi yirik yer egalarining nomi.

Zarbxona – chaqa va tangalar so‘qiladigan ustaxona.

Zardushtiylik – otashparast, quyoshga e’tiqod qiluvchi kishilar dini.

Zariasp – Baqtra shahrining ikkinchi nomi.

Ziroat – dehqonchilik, ekin ekish.

O'

O‘g‘uzlar — Markaziy va O‘rta Osiyoda yashagan turkiy qabila.

O‘lpon – yer solig‘i.

G'

G‘oziylar – ko‘chmanchilar hujumiga qarshi ko‘ngillilardan tuzilgan qurolli maxsus guruh, otryad, adolat kurashchilari.

Sh

Shayx ur-raic — donishmandlar sardori.

Shayxul-islom – din va ilm peshvosi, davlatdagi eng oliy diniy lavozim, bu lavozimni egallagan ruhoniy barcha diniy marosimlarga boshchilik qilgan. Qozilik ishlari boshqaruvchisi, kundalik hayotda shariat qoidalariga rioya etilishini ta’minlovchi amaldor.

Shahriston – ichki shahar, shaharning ichki qismi.

Shig‘ovul – mansabdorlar ustidan nazorat qilib boruvchi amaldor (elchi).

Shulen – XIII asrda olingan oziq-ovqat solig‘i.

Ch

Charxpalak – suv ko‘targich inshooti.

Chig‘ir – tuya yoki ho‘kiz qo‘shib aylantirilgan suv ko‘targich inshoot.

Chilangarlik – temirchilik.

Chokar – dehqonning hayotini, mol-mulkini qo‘riqlovchi, harbiy posbon, harbiy drujina, ko‘ngillilar to‘dasi.

Chokardiza – chokarlar qal’asi, kazarma.

Chopqun – bosqinchilik, bosmachilik, talon-taroj qilish.

Chorizm – Rossiya podshosining, monarxiyaning cheklanmagan hokimiyatini asoslagan davlat tuzumi. Bolgariyada ham shunday podsholik bo‘lgan.

Chor Rossiyasi – (Sarskaya Rossiya) – rus tilida podsho «sar» deyiladi. Bu mahalliy aholi tilida «chor» deb talaffuz etilgan va shu bois o‘zbek tilidagi adabiyotlarga shunday ko‘rinishda kirgan.

Chorikor – hosildan 25% olish hisobida ishlovchi yollanma qo‘shchi ziroatkor.

Chorsu (chorsiq) (so‘g‘dcha “su”, “suq” – bozor) – bozor joyi.

Chohpar – o‘ra.

Cho‘r – lashkarning sharqiy qanot amiri.

T.me/tarix_kitoblari_bot